



AKADEMIK LITSEYLARDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANI DARSIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Kuldasheva Feruza Kurdoshevna

TDIU AL o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7655399>


Annotatsiya. Ushbu maqolada akademik litsey o'quvchilariga Informatika darsini o'qitish jarayonida o'qituvchilarning roli va pedagogik texnologiyalarni to'g'ri qo'llashni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. O'qituvchi darsni to'g'ri pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini, yangi g'oyalarini rivojlantirish, yagona qolipda fikr yuritmaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik kabi hislatlarini yuzaga chiqarishda, zamon talabi darajasida bilimga ega bo'lishlarida, kreativ fikrlay olishlari va to'g'ri kasb tanlay olishlarida turtki bo'ladi.

Kalit so'zlar: web-dizayn, keys-stadi, texnologiya, Blits-so'rov, kreativ.

O'zining mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'lini tanlab olgan O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasini ham sobit qadamlik bilan isloh qilib kelmoqda. So'nggi yillarda talim tizimini yanada rivojlantirish yo'lida ko'p chora-tadbirlar yo'lga qo'yilmoqda. Jumladan, ta'lim tizimiga elektron ta'limni joriy etish maqsadida, jamiyatni elektron salohiyatini oshirish, ta'lim sohasiga raqamlashtirish texnologiyalarini joriy qilish, axborot ta'lim resurslarini yaratish, shaxsiy axborot xavfsizliklarini ta'minlashning me'yoriy asoslari yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 -yil 7 -fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-son Farmoni, 2017 -yil 14 -sentabrdagi "Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktabni tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3274sonli Qarori, 2018- yil 19- fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5344-son Qarori, 2020-yil 3-dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-sonli Qarori va maskur sohaga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarini qabul qilgach, bu boradagi ishlarning keng ko'lamda rivojlanishiga asos bo'ldi.

Ushbu hujjatlarning talablari asosida bilim va kasb-hunar egallashda nafaqat an'anaviy ta'lim bilan chegaralanib qolmasdan, balki an'anaviy va elektron ta'limlarini birgalikda qo'llash, oqitish texnologiyalarini zamonaviylashtirishni





jadallashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu tufayli ta'lim-tarbiya tizimida yangicha yondashuvlar, ya'ni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchilar bilan muloqat qilish, ularning iqtidorini, istak-xohishlarini inobatga olgan holda sifatli ta'lim berish orqali komil inson va yetuk malakali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash zamon talabiga aylanmoqda.

Lekin pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o'zigina o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ko'zlagan maqsadga erishishni to'la kafolatlaydi deb obyektiv qarab bo'lmaydi, chunki bu yerda obyekt shaxs bo'lib, uning ongi taklif qilinayotgan texnologiyani to'laligicha qabul qila olmaydi, aksincha, uni inkor qilishi ham mumkin. Shuning uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'lashda boshqaruvchisi bo'lgan o'qituvchigina ko'zlagan maqsadga erishishning bosh kafolatchisi bo'ladi. Agar shu nuqtayi nazardan kelib chiqib qaraydigan bo'lsak, yangi pedagogik texnologiyalar va uning asosiy negizi bo'lgan axborot-kommunikatsiya (AKT) texnologiyasini ta'lim tizimiga joriy etishda uning boshqaruvchisi bo'lmish o'qituvchining tayyorgarlik darajasini birinchi o'ringa qo'yish lozim. Shu sababli pedagogik jarayonlarning kun tartibidagi aksariyat dolzarb muammolarining ijobiy yoki maqsadga muvofiq tarzda hal qilinishi ko'p jihatdan o'qituvchining kasbiy salohiyati va pedagogik mahoratiga bog'liq. O'qituvchi o'zining pedagogik mahoratidan kelib chiqqan holda o'tayotgan har bir mavzusi doirasida pedagogik texnologiyalaridan foydalanishi maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda akademik litseylardagi o'qitish metodikasi o'quvchilarni tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim. Informatika va axborot texnologiyalari fanida mavzularni chuqurroq o'rgatish, ularga eng ommabob va zamonaviy amaliy dasturlar va dasturlash tillarini tanlashda ko'maklashish dolzarb muammolaridan biridir. Bunda o'qituvchilar dasr mashg'ulotlarini nazariy va amaliy turiga qarab pedagogik texnologiyalaridan to'g'ri foydalangan holda dars mashg'ulotlarini olib borishi o'quvchilarni ajablana olishi, hayratlana olishiga sabab bo'lishi lozim, shundagina ta'lim oluvchilar o'zining ijodiy mehnati bilan hayratlantira oladi. Informatika fan o'qituvchi o'zining pedagogik mahoratini ishga solgan holda mashg'ulotlarda pedagogik texnologiyalarining "Blits-so'rov", "Venn diagrammasi", "Aqliy hujim", "Keys-stadi", "Insert", "baliq skleti" texnologiyalaridan foydalanishlari mavzuni o'quvchilarni to'liq o'zlashtirishlariga yo'rdam beradi.

"Keys-stadi" texnologiyasini faqat bir mavzu doirsida qo'llagandan ko'ra, bo'limga qo'llash yaxshiroq natija beradi. Agar "Web dizayn" bo'limini oladigan





bo'lsak, "keys-stadi" texnologiyasi bu erda juda o'rinlidir. O'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib, har bir guruhga "Web dizayn" mavzusi bo'yicha kichik loyihalarni ma'lum muddatga vazifa qilib beriladi. Albatta, o'quvchilar loyiha ustida ishlash jarayonida o'tilgan darslarni mustahkamlashadi va o'rgana olmagan savollarini bir-birlari bilan maslaxatlashib bilimlarini oshirishadi, qolaversa mustaqil izlanishlar qiladilar. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarga bilimlarini oshirish bilan bir vaqtda kasbga yo'naltirishga ham yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. H.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" Toshkent-2009y.
2. Tayloqov N. Axmedov A. 11-sinf "Informatika va axborot texnologiyalari" darsligi 2018y.
3. A.SH. Rashidov Резольвента модели Фридрикса с одномерным возмущением. Научного журнала «Ученый XXI века» 2018. №4-1

